

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA PAREMIOLOGIYA

Otavaliyeva D.,

Alfraganus universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: xalqning turmush tarzi, hayoti, kishilarning jamiyatga bo‘lgan munosabatini, kuzatishlar va tajribalarga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ularini umumlashma sifatida paydo bo‘lgan maqol, matal aforizm kabi hikmatli iboralarni – paremalarni o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi.

Kalit so‘zlar: Paremiya, maqol, matal, barqaror birikma, kinoya, paremiologiya, frazeologiya.

Xalq orttirgan tajribalari, xulosalari, inson tarbiyasiga oid fikrlari qadimdan xalq maqollarida, matallarida, hikmatli so‘zlarida, iboralarda, afsonalarida, dostonlarida o‘z ifodasini topgan. Ularda mardlik, mehnatsevarlik, halollik, vatanparvarlik, otanaga hurmat-ehtirom ko‘rsatish kabi fazilatlar tarannum etilgan barqaror birikmalar ko‘plab uchraydi. Mashhur hind masali “Kalila va Dimna”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Nosir Xisravning “Saodatnoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devon-u lug‘otit turk”, Ahmad Yassaviyning “Devoni Hikmat”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbatul-haqoyiq” hamda Alisher Navoiyning ko‘pgina asarlarida ham maqol va matallarning o‘rinli qo‘llanganligi va izohlanganligini ko‘rish mumkin. “Dunyoda tilsiz xalq bo‘lmagani kabi, maqolsiz til ham yo‘q”, degan edi tatar yozuvchisi Noqiy Esanbat. O‘zbek tili shaklan ixcham, chuqur mazmunli, nafis va jozibador maqollarga juda boy. Maqollar, matallar hikmatli so‘zlar, iboralarni turkiy tilda Paremalarni to‘plash, o‘rganish Mahmud Koshg‘ariy («Devonu lug‘otit-turk») va Gulxaniy («Zarbulmasal») zamonlaridan to hozirgi kunlarga davom etib kelmoqda [Berdiyev H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – T.,1984.]. Parema, paremiya [yun. Paroimia – masal, ramzli hikoya] ma‘lum bir tildagi avloddan avlodga og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va soda, qisqa va mazmundor, mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan turg‘un ibora [O‘zbek tilining izohli lug‘ati T.,2022.,650-b.]; maqol, matal. Tilshunoslikda maqol-matal va hikmatli so‘zlar “paremalar” deb ham yuritiladi. Paremiologiya so‘zi esa grekcha paranomia – hikmat, va logos – ta‘limot so‘zlaridan olingan bo‘lib, ma‘lum bir tildagi chuqur ma‘noli gap, maqol, matal, aforizm kabi hikmatli so‘z, iboralarni o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi hisoblanadi. Ya‘ni ma‘lum bir xalqning turmush tarzi, hayoti, kishilarning jamiyatga bo‘lgan munosabatini, kuzatishlar va tajribalarga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarni ifodalovchi ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ularini, ijobiy fazilatlarini o‘zida

mujassamlashtirgan, avloddan avloda og‘zaki shaklda ko‘chib yuruvchi, ixcham va soda, qisqa va mazmundor mantiqiy umumlashma sifatida paydo bo‘lgan maqol, matal aforizm kabi hikmatli iboralarni – paremalarni o‘rganuvchi tilshunoslik sohasi Paremiologiya deyiladi. Bu kabi birikmalarni to‘plash bilan esa Paremiografiya sohasi shug‘ullanadi. Bu termin o‘zbek tilshunosligida *barqaraor birikmalar* termin nomi bilan ham yuritiladi.

Paremiologiyani bejizga xalq hayoti ensklopediyasi deb atashgan emas, paremalarni xalqning dunyo haqidagi bilimlarini og‘zaki tajribasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Va aynan, xalq og‘zaki ijodi vakillari, maqol, matal, hikmatli so‘zlarni o‘rganuvchi sohasi sifatida Paremiologiya deb qarashgan. Paremalar hamisha bizning ongimizda tayyor, sayqallangan birlik sifatida saqlanib, avloddan avlodga o‘tib keladi. Ulardan esa istalgan inson, istalgan vaqtda bimalol foydalanishi, o‘z muloqotlarida ishlatishlari mumkin.

Ayniqsa, maqol, matal, iboralar xalqning ma‘naviy madaniyatining yuksakligi va ularning so‘zamonligining darakchisidir. Ushbu lingvistik paremalar o‘zining obrazlilik, turli xil badiiy tuzilmalari bilan xarakterlanadi. Paremiologiya tarkibiy qismi bo‘lgan maqol va matal terminlarining ta‘riflari birmuncha munozaralidir. Maqollar grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, o‘tkir mazmunli, ko‘chma ma‘noda ishlatiluvchi qisqa, ixcham xalq hikmatlaridir. Matallar esa grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, faqat o‘z ma‘nosida – to‘g‘ri ma‘noda qo‘llaniluvchi qisqa, ixcham xalq hikmatlari hisoblanadi. Maqollarning matallardan asosiy farqi maqollarning idiomalashgan ko‘chma ma‘noga ega ekanligi va matallarning bu xususiyatga ega bo‘lmay, faqatgina to‘g‘ri ma‘noda qo‘llanishida ko‘rinadi (Jo‘rayeva B, 2006).

Tadqiqotchi M.Qosimova maqol va matallarning farqli tomonlarini quyidagicha ko‘rsatadi:

- a) maqollar nutqda yaxlit hukm sifatida qo‘llansa, matallar hukmning qismi funksiyasini bajaradi;
- b) maqollarning funksional doirasi ularning temasi bilan chegaralanmasa, matallar aniq mavzu asosidagi qat‘iy funksional qo‘llanishga ega;
- c) maqollar aniq shakliy tuzilishga ega bo‘lsa, matallarda shakliy qat‘iylik mavjud emas;
- d) maqollar ba‘zan ko‘chma ma‘noda, ba‘zan o‘z ma‘nosida qo‘llansa, matallar hamma vaqt ko‘chma ma‘no tashiydi;
- e) maqol kishilik jamiyatining biror voqea-hodisalarini ifodalab keladi va to‘la tugallangan fikr, pand-nasihat, hayotiy qonun-qoida mazmunini o‘zida

mujassamlashtirsa, matal predmetning tasviri bo‘lib, uning xarakteristikasini tavsifiy ifodalaydi;

f) maqollar tugallangan fikrni ifodalab, grammatik shakllangan gap tarzida; matallar esa fikr va muhokamaning tugal natijasini emas, balki uning elementlarini ifodalab, grammatik jihatdan to‘la shakllanmagan birlik tarzida namoyon bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, tilshunoslarning maqol va matalning o‘zaro farqli jihatlari haqidagi fikrlari deyarli bir-biriga o‘xshash.

O‘zbek tilshunosligida maqollar tahliliga bag‘ishlangan bir qancha tadqiqotlar mavjud. Turdiqulovning “Maqollarning sintaktik xususiyatlari” va B.Jo‘rayevaning “Maqollarning lisoniy mavqeyi va ma‘noviy-uslubiy qo‘llanilishi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyalarini shu yo‘nalishdagi muhim ishlar sirasiga kiritish mumkin.

Demak har qanday xalqning paremiologiyasi ushbu tilda gaplashadigan millat tarixi, madaniyati, urf-odatları va adabiyoti bilan uzviy bog‘liqdir va shunga mos ravishda badiiy asarlarda aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdiyov H., Rasulov R. O‘zbek tilining paremiologik lug‘ati. – T.,1984.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati T.,2022.,650-b.
3. Jo‘rayeva B. O‘zbek xalq maqollarining qisqacha sinonimik lug‘ati. – T.: FAN, 2006 // <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-70996.html>.
4. O.A.Hazratqulova. Paremiyalar va ularning tilshunoslikda o‘rganilishi. <https://universalpublishings.com/index.php/jusr/article/view/507>